



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil "13" aprel

BUYRUQ № 44

Toshkent sh.

**"Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizom"ni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. "Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- sentabrdagi "Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"ni tasdiqlash to'g'risidagi 33- son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov